



CONFESSIONAL EXPANSIONISM AS THE CHIEF CONDITION OF TRANQUILITY IN LEBANON

Muzaffar Sattiev

Researcher

Yangi asr University

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Republic of Lebanon, inter-confessional relations, political-economic crisis, social stability, religious tolerance, Middle East geopolitics.

Received: 23.12.24

Accepted: 25.12.24

Published: 27.12.24

Abstract: This article analyzes four main stages in the history of the development of the Republic of Lebanon. The author studies the socio-political structure of the country consisting of different confessions, the influence of external forces and the impact of inter-confessional conflicts on the socio-economic situation. Lebanon's transition from war and conflict to peace and stability is covered step by step. The article describes the importance of achieving national peace and social cohesion, as well as the achievements of the country in strengthening its relations with the outside world. Nevertheless, the importance of adhering to the principles of religious tolerance and inter-ethnic harmony was emphasized.

KONFESSIYAVIY KENGBAG‘IRLIK LIVANDAGI OSOYISHTALIKNING BOSH SHARTI SIFATIDA

Muzaffar Sattiyev

tadqiqotchi

Yangi asr universiteti

O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Livan Respublikasi, konfessiyalararo munosabatlar, siyosiy-iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy barqarorlik, diniy bag‘rikenglik, Yaqin Sharq geosiyosat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Livan Respublikasining rivojlanish tarixidagi to‘rt asosiy bosqich tahlil qilingan. Muallif mamlakatning turli konfessiyalardan iborat bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tarkibi, tashqi kuchlarning ta’siri va konfessiyalararo ziddiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatga

ta'sirini o'rganadi. Livanning mustaqillikka erishganidan boshlab, urush va ziddiyatlardan tinchlik va barqarorlikka o'tish jarayoni qadamba-qadam yoritilgan. Maqolada milliy sulhga erishish va ijtimoiy hamjihatlikning ahamiyati, shuningdek, mamlakatning tashqi dunyo bilan munosabatlarini mustahkamlashdagi yutuqlari bayon qilingan. Shunga qaramay, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tamoyillariga amal qilishning ahamiyati ta'kidlangan.

КОНФЕССИОНАЛЬНАЯ ШИРОТА КАК ГЛАВНОЕ УСЛОВИЕ СПОКОЙСТВИЯ В ЛИВАНЕ

Музаффар Саттиев

Исследователь

Университет Янги аср

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Ливанская Республика, межконфессиональные отношения, политико-экономический кризис, социальная стабильность, религиозная толерантность, геополитика Ближнего Востока.	Аннотация:	В данной статье анализируются четыре основных этапа в истории развития Ливанской Республики. Автор изучает социально-политическую структуру страны, состоящей из разных конфессий, влияние внешних сил и влияние межконфессиональных конфликтов на социально-экономическую ситуацию. Переход Ливана от войны и конфликта к миру и стабильности рассматривается шаг за шагом. В статье описывается важность достижения национального мира и социального единства, а также достижения страны в укреплении ее отношений с внешним миром. Тем не менее, была подчеркнута важность соблюдения принципов религиозной толерантности и межэтнического согласия.
------------------------	---	-------------------	---

КИРИШ

Tabiiyki, bu guruhlarning har biri, diniy va madaniy tafovutlardan tashqari, mamlakatning tarixi, siyosiy hayoti va iqtisodiy taraqqiyot yo'llari haqida o'z qarashlariga egadir. Ayni paytda, mazkur konfessiyalarning birortasi na ta'sir kuchi, na demografik ko'rsatkichlari jihatidan butun Livanga o'z ta'sirini o'tkazish uchun yetarli imkoniyatga ega emas. Tarkibi bunday murakkab bo'lgan aholi o'rtasida turli konfessional guruhlar yoki ularning birlashmalari o'rtasida davlat resurslariga egalik qilish bo'yicha keskin raqobat kuzatiladi.

ASOSIY QISM

Mustaqil Livanning rivojlanish tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich. 1943-yil – 50-yillarning birinchi yarmi. Siyosiy-iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash davri. Bu bosqich xorijiy harbiy kuchlarning Livan hududini tark etishiga qaramay, xorijiy monopoliyalarning o‘z ta’sirini saqlab qolishi hamda Livanning birinchi arab-isroil urushida ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Hukumat 1948-yilda Livanni “erkin iqtisodiyot” mamlakati deb e’lon qilib, valyuta nazoratini bekor qildi, ayni paytda tranzit savdo va xorijiy savdo va moliyaviy kompaniyalarning faoliyati rag‘batlantirib borildi[1]. Iqtisodiyotga yo‘naltirilgan barcha kapital qo‘yilmalarning 90 foizi xorijliklarga tegishli edi. Yerlarning to‘rt dan uch qismi pomeschchiklar qo‘lida edi. Respublika hukumati dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, xorijiy kapitalga, ayniqsa, amerika kapitaliga imtiyozlar berishga qaratilgan siyosatini olib bordi. Shunday qilib, savdo va moliyaviy kapital uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Ikkinchi bosqich. XX asr 50-yillarning ikkinchi yarmi – 60-yillarning o‘rtalari. Livan - Yaqin Sharq “shveysariyasi” Hukumatning g‘arbparastlik kayfiyati siyosiy ixtilofni kuchaytirdi, biroq shunga qaramay, bu davrda Livanda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik davri boshlandi. Livan Yaqin Sharq Shveysariyasi degan nom qozondi. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik Livanning iqtisodiy yuksalishiga olib keldi, Bayrut neftga boy mamlakatlar hamda G‘arbni bir-biriga bog‘lab turuvchi moliyaviy markazga aylandi. Livan iqtisodiyoti asosan xizmat ko‘rsatish sektoriga yo‘naltirilgan bo‘lib, savdo, bank biznesi va turizmdan iborat edi. Xususan, Livanning tashqi bozorga kuchli bog‘liqligi qishloq xo‘jaligining va ayniqsa sanoatning sust rivojlanganligi bilan izohlanar edi. Siyosiy ziddiyatlar muxolifatning hukumat oldiga prezidentning iste’foga chiqishi, “Eyzenxauer doktrinasidan” voz kechish, mustaqillik va suverenitetni saqlab qolish, arab mamlakatlari bilan hamkorlik o‘rnatish, mamlakat hududida g‘arb davlatlarining harbiy bazalarini tashkil qilishga ruxsat bermaslik kabi talablarni qo‘yishi sifatida namoyon bo‘ldi.

Siyosiy beqarorlik iqtisodiy taraqqiyotga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. 1966-yilda eng yirik mahalliy banklardan biri - “Intra” banki bankrot bo‘ldi. Oqibatda hukumat inqirozga uchrab, nisbiy barqarorlik davrining tanazzulini boshlab berdi.

Uchinchi bosqich. XX asr 60-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning birinchi yarmi. Arab-isroil ziddiyatlarining kuchayishi, fuqarolar urushi

1972-yilda saylangan parlamentning vakolat muddati 1992-yilgacha uzaytirib kelindi. Siyosiy ziddiyatlarning, xususan, arab-isroil ziddiyatlarining kuchayishi (1967, 1972, 1982 va 1996 yy.) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qaqshatqich zarba berdi, mamlakatda yoppasiga qarshilik harakatlari boshlanib ketdi. Bu harakatga 1982-yil sentyabrda tashkil qilingan Livan vatanparvar norozilik fronti rahbarlik qildi. Eronlik ko‘ngillilar ta’siri ostida 1982-yilda shialarning “Islomiy amal” hamda “Xizbulloh” tashkilotlari paydo bo‘ldi. Lozanna konferensiyasida (1984-y.) yangi konstitutsiyani ishlab chiqish tamoyillari tasdiqlandi.

Hukumatining sustligi, muntazam armiyaning loqaydligi oqibatida mamlakatda siyosiy, etnokonfessional kelishmovchiliklar favqulodda keskinlashib, turli diniy jamoalar o'rtasida tez-tez yuz berib turgan qurolli to'qnashuvlarga olib keldi. Natijada Livanda fuqarolar urush boshlanib ketdi. Bu urush arab-isroil ziddiyatining oqibati edi[2].

Bu bosqichning eng muhim voqeasi Toif (Saudiya Arabistoni-1989-yil) shahrida Milliy sulh Xartiyasining va yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bo'ldi. Bu bitim Toif bitimi deb tarixga kirdi. Unga ko'ra Milliy palata Milliy Assambleyaga aylantirildi, hukumat organlari tarkibida diniy jamoalarning vakolat me'yorlari qayta ko'rib chiqildi, deputatlar soni 108 taga ko'paytirildi. Livan jamiyatining barcha jabhalarida konfessionalizmga barham berishga qaror qilindi. Livan parlamentar davlat yo'nalishini qo'lladi. Bugungi kunda ham Livan parlamentar respublika hisoblanadi.

Yaqin Sharq bo'yicha Madrid konferensiyasi (1991-yil oktyabr) arablar, falastinliklar va isroilliklar o'rtasida 90-yillar mobaynida davom etgan murakkab muzokaralar jarayonini boshlab berdi[3]. Imzolangan qator bitimlarga qaramay, Livan o'zining bosib olingan janubiy hududlarni qaytarib olishga muvaffaq bo'la olmadi. Buning ustiga, Livanning o'zida muzokaralar keskin qarshilik qiluvchi kuchlar ham mavjud edi. Etnokonfessional ziddiyatlar, radikal, ekstremistik fundamentalizmning doimiy tahdidi, Livanda Suriyaning doimiy hozir bo'lib turishi mamlakatdagi vaziyatni yumshatishga to'sqinlik qilar edi.

Arab-isroil ziddiyati hamda fuqarolik urushi mamlakatning iqtisodiy tanazzuliga sabab bo'ldi, shialarning ahvolini og'irlashtirdi, nasroniy va musulmon jamoalar o'rtasida ziddiyatlarni vujudga keltirdi.

Fuqarolar urushi 1992-yilgacha davom etib, nihoyat sulh tuzildi, mamlakatda tinchlik o'rnatildi.

To'rtinchi bosqich. XX asrning oxiridan bugungi kunga qadar. Fuqarolar urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Fuqarolar urushidan keyin yangi tahrir ostidagi Konstitutsiyaga muvofiq parlamentga saylovlar (1992, 1996, 2000, 2004 va 2009yy.) bo'lib o'tib, ushbu parlament 128 o'rindan iborat edi. Mandatli o'rinlar musulmon va nasroniy vakillar o'rtasida teng taqsimlandi. Davlat ijroiya hokimiyati 1926-yilda qabul qilingan ilk Konstitutsiya hamda 1943-yil 22-noyabrdagi Milliy paktga asosan o'zgartirilmadi.

Livan suveren davlat sifatida, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida nafaqat Yaqin Sharq davlatlari, balki dunyoning turli mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'ya boshladi. Jumladan, 1991-yil 30-dekabrda Livan Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi. Ushbu ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1998-yildan boshlab yo'lga qo'yildi.

Bu davrda Livan hukumati mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatish, iqtisodiy inqirozni bartaraf etish, mavjud siyosiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishga, konfessiyalararo munosabatlarni tolerantlik, ya'ni diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, do'stona ijtimoiy hamjihatlik tamoyillari asosida yaxshilashga qaratilgan siyosat yurgaza boshladi.

Livan hukumati tanlagan ushbu strategik yo'l mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy natijalarni namoyon etdi. Jumladan, Livan hukumati 1992-yildan boshlab 2007-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan, jami 60 mlrd dollar kapital qo'yilmalarni taqozo etuvchi "Gorizont 2000" ta'mirlash va rivojlantirish dasturini amalga oshirdi. 1997-yilda qurilish industriyasi sektorini yuksaltirish hisobiga mamlakatda YAIMning yillik o'sishi 3,5 foizga yetdi.

2000-yilning boshiga kelib, Livan Markaziy bankining aktivlari 8 mlrd AQSH dollarini, shu jumladan, oltin zahirasi 4 mlrd dollarni tashkil qildi[4].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Livanning ko'p asrlik tarixidan ko'rinib turibdiki, konfessiyalararo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik bir tomondan hukumatning mazkur sohadagi oqilona siyosat yo'nalishini tanlay bilishiga, ikkinchi tomondan esa, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyatga, xususan, tashqi kuchlarning Livan ichki ishlariga xolis aralashuviga bog'liqdir.

Qadimiy tarixga daxldor bo'lgan Livandagi ko'p konfessiyali jamiyat rivojlanish bosqichlarining qisqacha taxliliga ko'ra, mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatish, siyosiy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish, mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilishda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, do'stona ijtimoiy hamjihatlik tamoyillariga amal qilinmayotganligi salbiy oqibatlarining manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Осман Х.А. Ближний Восток. Политическая ситуация в Палестине, Ливане, Сирии как внутрирегиональная угроза безопасности. – Краснодар: Изд-во Кубан. гос. ун-та, 2009. – 35с.
2. Хрейзат М.А. Позиция Ливана в арабо-израильском конфликте с 1948 г. до начала 70-х годов. М., 1997. - 19 стр
3. П.А.Рассадин. Ливанские марониты в новых социально-политических условиях // www.iimes.ru, 21.09.2005
4. Гасратян Альберт Вячеславович. Проблемы социально-экономического развития Ливана (1970-2000 гг.). Дис. канд. экон. наук 08.00.14 Москва, 2004 228 с.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 5 т. 265-267-б.